

ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA FARHOD VA SHIRIN TALQINI

*Andijon viloyati Marhamat tumani
2-son kasb-hunar maktabi
Ona tili va adabiyoti fani o`qituvchisi
Sultanova Nilufar Oribjonovnaning
“Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”
dostonida Farhod va Shirin talqini”
mavzusida yozgan maqolasi*

Yuz jafo qilsa manga, bir qatla faryod aylaram,
Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylamon.

Moziyga qaytmoq, o'tmishimiz sahifalarini varaqlamoq, bu zarvaraqlardan bahramand bo'lmoq kishiga mislsiz zavq va kuch bag'ishlaydi. Biz ota-bobolarimiz yashab o'tgan mashaqqatli hayot yo'llari bilan, ular qoldirgan beqiyos va bemisl ilmiy va adabiy ijod namunalari bilan faxrlansak arziydi. Ularning har bir qoldirgan meroslari, balki hayot yollari bizga o'rnakdir. Tariximiz sahifalari bunday insonlar nomi bilan to'lib-toshib yotibdi. Masalan: Beruniy, Forobiy, Al Farg'oniy, At Termiziy, Yusuf Xos Hojab, Mahmud Qoshg'ariy, A.Navoiy, Z.M.Bobur kabi ko'plab allomalarning nomlarini keltirish va ularni yana davom ettirish mumkin. Ular o'z umrlarini ilm o'rganishga, ilmiy va badiiy asarlar yaratishga, xalqlar hayotini yaxshilashga bag'ishlaganlar. Mana shunday bobolarimiz hayot yo'llariga nazar tashlar ekanmiz, beixtiyor o'zbek farzandi ekanligingdan faxrlanib ketasan kishi va qalbda g'urur va iftixor tuyg'usini his etasan, albatta.

Biz buyuk ajdodlarimizdan biri bo'lgan bobomiz Mir Alisher Navoiy ijodi haqida to'xtalamiz. Alisher Navoiy butun hayoti davomida ulkan va g'oyatda boy badiiy xazina yaratgan ijodkordir, U besh dostonni o'z ichiga olgan ulkan “Xamsa”, aruz vazni sirlarini bayon etuvchi “Mezon ul-avzon”, eski o'zbek tilidan saboq beruvchi “Muhokamat ul-lug'atayn” hamda “Nazm ul-javohir”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Vaqfiya”, “Tarixi muluki ajam” va hayoti tajribalarining xulosalari sifatida yaratilgan “Mahbub ul-qulub” kabi asarlari qatori to'rt yirik devonni o'zida jamlagan “Xazoyin ul-maoniy” nomli lirik to'plamning ham yaratuvchisidir.

Buyuk ijodkorlarning asarlari ichida xarakterli bo'lgan ijod namunalari bo'ladiki, shu asar orqali ijodkor ijod namunalarining butun mohiyatini bilib olish mumkin. Masalan: Gomerning “Iliada”si, Firdavsiyning “Shohnoma”si, Shekspirning “Hamlet”, I.L.Tolstoyning “Urush va tinchlik” romani shunday asarlar sirasiga kiradi.

Alisher Navoiy ijodining asosiy mohiyatini bayon qiluvchi eng muhim asarlaridan deb uning “Xamsa” asarini ko’rsatish mumkin.

Navoiyning lirika sohasida yaratgan adabiy maktabi besh asrdan beri davom etib keladi. Bu adabiy maktabdan Fuzuliy, Bobir, Muqimiy, Furqat kabi shoirlar bahra olib yetishib chiqdilar. Shunday bo’lsa-da, Navoiyning o’ttizdan ortiq asarlari orasida “Xamsa” alohida va mumtoz o’rin tutishga sazovor bir asar – sira buzilmas adabiy haykaldir. Ijodkor buyuk davlat arbobi, faylasuf va ulug’ san’atkor sifatida o’z oldiga qo’ygan maqsadlarini, olijanob ideyalarini ushbu asarda namoyish etadi. “Xamsa” Navoiy ijodining duru gavharidir.

Navoiyning dunyoviy shuhratiga sabab bo’lgan xislatlari, xususan, “Xamsa”da yaqqol namoyon bo’ladi. Bu asar ijodkorning beshta eng katta dostonini o’z ichiga oladi. Bular: “Hayratul abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” nomli katta dostonlardir. “Xamsa” ellik bir ming ikki yuz o’ttiz misradan iborat bo’lib, badiiy ijodning eng yirik mahsulidir. Navoiy o’z asarlari sujetini xalqning yurak gavhari bo’lgan xalq og’zaki ijodidan oldi. “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin” sharq xalqlari orasida keng tarqalgan va omma tomonidan sevib aytib kelingan afsonalar edi. Xuddi shu afsonalar shoirni koproq qiziqtirdi va ijodkor ularga shunday mehr bilan ishlov berdiki, ular afsonalikdan chiqib, Navoiy davri voqeligining badiiy manzarasiga aylandi. Shuning uchun Navoiy:

Olloh, olloh, bu ne afsonadir?

Kim bu fasona desa, devonadur,--

deb qat’iy hukm chiqaradi.

“Xamsa” asarining gultoji – bu “Farhod va Shirin” dostonidir. Ijodkorning eng ko’p shuhratiga sabab bo’lgan asardir. Bu asarning ijobiy timsollari shoir zamonasi uchun ideal qahramonlar bo’lsa, ammo salbiy obrazlar bu davrda har qadamda uchrar edi. Malika Mehinbonu bilan shahzoda Farhodning qilgan ishlari Husayn Boyqaro va uning o’g’li Badiuzzamonga o’rnak qilib berilgan. Buyuk jahongir Amir Temur vafotidan so’ng uning avlodlari o’rtasida toju taxt uchun kurashlar bo’ldi. Bu urushlar xalqning tinka- madorini quritdi. Navoiy ana shu Temur sulolasining so’nggi podshosi Husayn Boyqaro davrida unga vazir bo’lib yashadi. Husayn Boyqaroning o’g’li Badiuzzamon otasiga qarshi bir necha marta isyon ko’tarib, taxt da’vo qildi. Jiyani Muhammad Yodgor tog’asiga qarshi isyon ko’tarib poytaxt – Hirotni bosib olgan vaqtda ham, Navoiyning aqlu zakovati bu davlatni saqlab qoldi. “Farhod va Shirin” dostoni ana shunday tarixiy davrda tarbiyaviy maqsadni ko’zlab yozilgan asardir.

“Farhod va Shirin” dostonida butun voqea va hodisalar ikki yoshning haroratli, sof sevgisi zamirida ochib beriladi. Qahramonlarning boshqa fazilatlariga esa haqiqiy oshiqning tabiiy xislatlari sifatida bayon qilinadi. Haqiqatan ham Navoiy o’zining bu ajoyib dostoni bilan muhabbat kitobiga yangi va go’zal sahifatlar qo’shdi.

“Farhod va Shirin” dostonida bir-biriga qarama -qarshi qo’yilgan ikki naslni ko’ramiz. Bir tomonda Farhod, Shirin, Shopur, Bahrom, ikkinchi tomonda Xisrav, Shiruya va Yosuman. Bu ikki tomonning kurashlari jarayonida ularning ijobiy va salbiy qirralari ochilib boradi.

Farhod – bu butun insoniy fazilatlarni o’zida aks ettirgan olijanob inson timsolidir. Bunday insonni odamlar uzoq vaqtdan buyon orzu qilar edi. Nihoyat bunday inson Navoiyning xayol gulshanida o’sib voyaga yetdi. Farhodda go’zal fazilatlarning barchasi mujassamlangan.

Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,
Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm,
Dedi:” har ishki qilmish odamizod,
Tafakkur birla bilmish odamizod...”

Farhod juda katta jismoniy kuchga ega bo’lgan qahramon va vatanparvar timsolidir. U shohlikni “tuproq bilan teng“ ko’rib, butun hayotini bilim va ma’rifatga, san’atga bag’ishlaydi. Bilim uning kuchiga kuch qo’shadi, uilmadan kuch olib qattiq toshlarni mumdek kesadi, hayot tilsimlarini ochay deb eng xatarli yo’llarga qadam qo’yadi. Jamiyatning o’sishiga g’ov bo’lgan qora kuchlarni: og’zidan o’t sochuvchi ajdahoni, Axraman nomli mudhish devni o’ldirib, “Temir odamlarni” kurashda yengib, tilsimlarni ochadi. Yangi ilmiy mo’jizalar yaratib, yolg’iz o’zi qaroqchilarni yengadi, o’lim kutgan kishilarga hayot bag’ishlaydi. Ma’shuqasining vataniga hujum qilgan Xisrav askarlarining boshiga balo yog’diradi. Farhod haqiqiy oshiq timsolidir. Ijodkor bu mukammal timsolni o’ziga zamondosh bo’lgan shahzodalarga ibrat tarzida tasvirladi.

Dostondagi Shirin timsoli o’zining fazlu kamoli va dunyoni anglash jihatidan Farhoddan sira kam bo’lmagan bir olijanob qizdir. Malika Mehinbonu davlatni boshqarish ishlarida jiyani Shirinning oqilona maslahatlariga amal qiladi. Chunki mamlakat obodonchiligi uchun ariqlar, kanallar qazdirish Shirinning dono maslahatlari natijasidir. Shirin o’zining go’zalligi bilan emas, balki tengsiz aqli, farosati, donishmandligi bilan Mehinbonu saroyiga ma’naviy kuch bag’ishlaydi. Shirin mustahkam irodali, jasur qiz sifatida ham sevimlidir. Uning boshida o’lim qilichlari yaltiraganda ham taslim bo’lmaydi, tiz cho’kib yashagandan tik turib o’lgan fzal, deydigan asrimiz qizlariga o’xshaydi. Farhod bilan Shirin bir-birlarini otashin muhabbat bilan sevadilar. Shirin Farhodni shahzoda bo’lganligi uchun emas, balki har narsadan oldin dunyoning yagona olimi, har ishga qodir, hunarlarni egallagan fazlu kamolotda tengsiz bo’lgani uchun sevadi. Shirin o’z sevgisining mohiyatini haqiqiy inson bo’lishdan iborat deb biladi.

Menga ne yoru ne oshiq havasdur,
Agar men odam o’lsam ushbu basdyr.

“Farhod va Shirin “ dostoni Navoiyning dohiyligidan bashorat beruvchi eng go’zal asarlaridan biri sanaladi. Navoiy bu asarda insonparvarlik, baynalmilallik, samimiy sevgi, qahramonlik va vatanparvarlik kabi g’oyalarni ilgari surgan. Bilim, hunar va san’atni yuqori ko’tarib , limning hamma yutuqlarini bashariyatga bag’ishlashga chaqirdi. Zolimlarga qarshi keskin nafrat, yaqin kelajakda haqiqat va adolatga ishonch g’oyalarini tarannum etdi.

